

KORXONALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARI BUXGALTERIYA HISOBINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rajaboyev Shahboz Shodi o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Axborot texnologiyalari” kafedrası
assistenti

ORCID: 0000-0002-0997-6689

Axrorkulov Shaxbozjon Ziyodullayevich

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ish korxonalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlaridan foydalanish jarayonida vujudga keladigan buxgalteriya hisobining o‘ziga xos jihatlari keng yoritadi. AKT infratuzilmasi xarajatlarini tasniflash, dasturiy ta‘minotni nomoddiy aktiv sifatida tan olish, bulutli texnologiyalar uchun to‘lovlarni e‘tirof etish, IT xizmatlarining amortizatsiya mexanizmi, axborot xavfsizligi xarajatlarining hisobini yuritish hamda korxona raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy oqibatlar chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: AKT, nomoddiy aktiv, amortizatsiya, server xarajatlari, elektron hujjat aylanishi, IT xizmatlari, buxgalteriya hisobi.

SPECIFIC FEATURES OF ACCOUNTING FOR INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY (ICT) SERVICES IN ENTERPRISES

Rajaboyev Shahboz Shodi og‘li

Samarkand Institute of Economics and Service, Assistant of the Department of
"Information Technologies"

ORCID: 0000-0002-0997-6689

Axrorkulov Shaxbozjon Ziyodullayevich

Abstract: This scientific work provides an extensive analysis of the specific features of accounting that arise in the process of using information and communication technology (ICT) services in enterprises. It examines the classification of ICT infrastructure costs, the recognition of software as an intangible asset, accounting for cloud technology payments, the amortization mechanism of IT services, the accounting of information security expenses, and the financial implications emerging during the digitalization of enterprises.

Keywords: ICT, intangible asset, amortization, server expenses, electronic document management, IT services, accounting.

Kirish.

Raqamli transformatsiya jarayoni butun dunyoda iqtisodiy tizimlar faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda har bir korxona o'z faoliyatining deyarli barcha bosqichlarida AKT xizmatlaridan foydalanishga majbur bo'lib qoldi. Zero, AKT tizimlari korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, ma'lumot almashinuvi tezligini kuchaytirish, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishni jadallashtirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston korxonalarida ham so'nggi yillarda raqamlashtirish jarayoniga katta e'tibor berilmoqda: bulutli texnologiyalar, korporativ dasturiy tizimlar, elektron hujjat aylanishi, server infratuzilmasi, tarmoq xavfsizligi yechimlari keng joriy etila boshladi. Ushbu texnologiyalar oxir-oqibat korxona iqtisodiy faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshiradi. Shu bois AKT xizmatlarining buxgalteriya hisobini yuritish o'ziga xos bo'lib, uni chuqur tahlil qilish dolzarb masala sanaladi.

Adabiyotlar sharhi

AKT xizmatlarining iqtisodiy mazmuni va ularning buxgalteriya hisobi bo'yicha turli manbalarda fikrlar mavjud. Masalan, Vasilevska (2009) AKTning strategik rivojlanishdagi o'rnini batafsil tahlil qilib, uning korxona cheklovlarni yengib o'tishdagi ahamiyatini ko'rsatgan. Forrester (1992) texnologik jarayonlarning modellashtirilgan boshqaruv uslublarini ishlab chiqqan bo'lib, AKT tizimlarining qaror qabul qilishga ta'sirini ilmiy asoslagan.

Salet va Faludi (2000) strategik boshqaruvning zamonaviy yondashuvlarida texnologiyalarning ahamiyatiga e'tibor qaratgan. De Andreis (2019) esa raqamli transformatsiya davrida strategik rejalashtirishni takomillashtirish mexanizmlarini bayon qilgan. Ushbu manbalar AKT xizmatlarining buxgalteriya hisobi korxona strategik menejmenti bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)da nomoddiy aktivlar, xizmat ko'rsatish shartnomalari va amortizatsiya mexanizmlari bo'yicha berilgan ko'rsatmalar AKTga alohida yondashuvni talab qiladi. Bu holat milliy buxgalteriya standartlari bilan uyg'unlikda qo'llanilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot sifat va miqdoriy tahlil usullari asosida olib borildi. Quyidagi metodlardan foydalanildi: Taqqoslash, kontent-tahlil, analogiya metodi, statik tahlil, umumlashtirish.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Metodologiya tadqiqotning ilmiy asoslangan holda amalga oshirilishiga xizmat qilgani tufayli, olingan natijalar amaliy buxgalteriya amaliyotiga yaqin va real sharoitlarni aks ettiradi. Korxonalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari tobora keng qo'llanayotgani sayin, ular bo'yicha buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish masalasi ham dolzarb tus olmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot AKT xizmatlarini turli toifalarga ajratgan holda, ularning iqtisodiy mohiyati va buxgalteriya hisobida aks ettirish xususiyatlarini tahlil qiladi. Quyida dasturiy ta'minot, bulutli xizmatlar, axborot xavfsizligi tizimlari, AKT infratuzilmasi, xorijdan xarid qilingan xizmatlar bo'yicha QQS mexanizmi hamda elektron hujjat aylanishi tizimlari misolida olingan natijalar sharhlanadi.

Birinchi navbatda, dasturiy ta'minotning nomoddiy aktiv sifatida e'tirof etilishi masalasi ko'rib chiqildi. Amaliyotda korxonalar turli xil dasturiy ta'minotlardan foydalanadi: buxgalteriya dasturlari, ombor va savdo hisobi dasturlari, CRM va ERP tizimlari, dizayn, tahrirlash va ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiluvchi maxsus dasturlar shular jumlasidandir. Agar ushbu dasturlar 1 yildan ortiq muddat foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lsa, ularni nomoddiy aktiv sifatida tan olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu holatda dasturiy ta'minotning qiymati faqat sotib olish narxi bilan cheklanmaydi. Undan tashqari, dastur o'rnatish va sozlash bo'yicha xizmatlar, dastur litsenziyasini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlar, zarur bo'lsa, dasturga kiritilgan dastlabki moslashtirish ishlari ham umumiy boshlang'ich qiymat tarkibiga kiritilishi lozim. Shunda buxgalteriya hisobi nafaqat dastlabki pul chiqimini, balki korxona uchun kelgusida iqtisodiy foyda keltiradigan barcha komponentlarni mujassam aks ettiradi.

Nomoddiy aktiv sifatida tan olingan dasturiy ta'minot bo'yicha amortizatsiya hisoblash masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Ko'pincha amaliyotda 3–5 yillik amortizatsiya muddati qabul qilinadi. Bu muddat dasturdan foydalanish intensivligi, texnologik yangilanish tezligi va korxonaning ichki siyosatiga qarab belgilanishi lozim. Masalan, tez-tez yangilanadigan ofis paketlari uchun qisqaroq, 3 yilgacha bo'lgan muddat maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Keng ko'lamli, korxonaga kompleks boshqaruv funksiyasini beradigan ERP tizimlari uchun esa 5 yilgacha bo'lgan amortizatsiya davri iqtisodiy mazmunga ko'proq mos tushishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dasturiy ta'minotni yangilash, texnik qo'llab-quvvatlash yoki kichik funksional o'zgartirishlar ko'pincha davr xarajati sifatida tan olinadi, chunki bu xarajatlar yangi nomoddiy aktivni yaratmaydi, balki mavjud dasturdan foydalanishni davom ettirish imkonini beradi xolos.

Ikkinchi yoʻnalish sifatida bulutli xizmatlar va abonentlik asosida koʻrsatiladigan dasturiy mahsulotlar tahlil qilindi. Hozirgi kunda Google Workspace, Microsoft 365, AWS, Yandex Cloud kabi platformalardan foydalanish korxona hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bunday xizmatlar uchun toʻlovlar odatda oylik yoki yillik abonentlik koʻrinishida, foydalanuvchilar soni yoki ajratilgan saqlash hajmiga qarab shakllanadi. Mazkur toʻlovlarning mohiyati shundan iboratki, korxona dasturiy taʼminotga egalik qilmaydi, balki maʼlum davr davomida undan foydalanish huquqini oladi. Shu sababli bulutli xizmatlar uchun toʻlovlar kelgusida uzoq muddatli iqtisodiy manfaat yaratmaydi, asosan xizmat koʻrsatish davri bilan chegaralanadi. Tadqiqot natijalariga koʻra, bunday toʻlovlarni davr xarajatlari sifatida tan olish, ularni tegishli moddalar boʻyicha xarajatlar tarkibida aks ettirish buxgalteriya amaliyoti uchun maqbul hisoblanadi. Bu yondashuv korxonaning moliyaviy natijasini realroq aks ettirishga yordam beradi, chunki xarajat va xizmatdan olingan foyda bir davrga toʻgʻri keladi.

Uchinchi muhim yoʻnalish axborot xavfsizligi tizimlari xarajatlari bilan bogʻliq. Firewall, antivirus, DLP, IDS/IPS, zaxira nusxalash tizimlari kabi vositalar korxonaning maʼlumotlar bazasi va axborot resurslarini himoya qiladi. Tadqiqot axborot xavfsizligi boʻyicha xarajatlarni ikki asosiy qismga ajratib koʻrib chiqishni taklif etadi. Birinchisi, dastlabki oʻrnatish, konfiguratsiya qilish, maxsus dasturiy paketlarni xarid qilish bilan bogʻliq xarajatlardir. Agar ushbu tizimlar uzoq muddat davomida foyda keltirishi va korxonaning axborot infratuzilmasining ajralmas qismiga aylansa, ularni nomoddiy aktiv yoki, texnik vositalar bilan bogʻliq boʻlsa, asosiy vosita sifatida tan olish mumkin. Ikkinchisi esa muntazam texnik xizmat koʻrsatish, litsenziyani va virus bazalarini yangilab turish, qoʻshimcha texnik yordam kabi muntazam xarajatlardir. Bunday xarajatlar oʻz tabiatiga koʻra davr xarajatlari boʻlib, ular har bir hisobot davrida tegishli xarajat moddalari boʻyicha aks ettirilishi kerak. Ana shunday yondashuv axborot xavfsizligi boʻyicha xarajatlar strukturasi aniq koʻrsatish, boʻlimlar kesimida tahlil qilish va samaradorligini baholash imkonini beradi.

Toʻrtinchi yoʻnalish AKT infratuzilmasining moddiy asosini tashkil etuvchi serverlar, kompyuterlar va tarmoq uskunalariga taalluqlidir. Kompyuter texnikasi odatda asosiy vosita sifatida hisobga olinadi, chunki ular bir necha yil davomida korxona ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish yoki boshqaruv jarayonlarida foydalaniladi. Tadqiqot amaliyotda kompyuterlar, noutbuklar va shunga oʻxshash uskunalar uchun 3–5 yillik amortizatsiya muddatini, serverlar va katta hajmli saqlash

tizimlari uchun esa ko‘pincha 5 yillik muddat qo‘llanilishini ko‘rsatdi. Bu tanlov texnik eskirish tezligi, texnologik yangilanish sur‘ati hamda korxonaning raqamli strategiyasi bilan uzviy bog‘liq. Agar korxona tez-tez modernizatsiya qilish siyosatini yuritisa, amortizatsiya davrini qisqaroq belgilash, agar uskunalar uzoq muddat foydalanilsa, uni biroz uzaytirish mumkin. Muhimi, tanlangan muddat iqtisodiy mazmunni aks ettirishi va izchil qo‘llanilishi kerak. Bundan tashqari, AKT uskunalarini o‘z vaqtida yangilab borish korxonaning raqamli barqarorligi va axborot xavfsizligi uchun muhim omil ekanligi tadqiqot davomida qayd etildi.

Beshinchi tahlil yo‘nalishi xorijdan xarid qilingan AKT xizmatlari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i mexanizmi bilan bog‘liq. Xorijiy kompaniyalardan dasturiy ta‘minotga obuna bo‘lish, bulutli xizmatlardan foydalanish yoki masofaviy texnik yordam olish hollari ko‘payib bormoqda. Bunday vaziyatda teskari hisoblash, ya‘ni reverse charge mexanizmini to‘g‘ri qo‘llash buxgalteriya amaliyoti uchun juda muhim. Amaldagi tartibga ko‘ra, rezident korxona xorijdan olingan xizmatlar bo‘yicha 12 foizlik QQSni mustaqil ravishda hisoblab, tegishli hisobotlarda aks ettirishi kerak. Bu jarayonda xizmat qiymati shartnoma yoki hisob-faktura asosida aniqlanadi, undan QQS summasi hisoblanadi va bu summa bir vaqtning o‘zida hisoblangan soliq sifatida majburiyatlarda, hamda ma‘lum shartlar bajarilganda, soliqni chegirish huquqi bo‘yicha hisobda aks ettirilishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab korxonalarda aynan teskari hisoblash bo‘yicha provodkalar, hisobot davri va hujjatlarni rasmiylashtirishda xatolar uchrab turadi. Shu sababli bu yo‘nalishda buxgalterlar uchun qo‘shimcha uslubiy ko‘rsatmalar, ichki nazorat tartiblarini ishlab chiqish zarurligi ta‘kidlab o‘tildi.

Oltinchi yo‘nalish sifatida elektron hujjat aylanishi va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish tizimlari tahlil qilindi. Elektron imzo, elektron hisob-faktura, elektron shartnomalar va boshqa raqamli hujjat turlari buxgalteriya ishlarini sezilarli darajada yengillashtiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, elektron hujjat aylanishi joriy etilgan korxonalarda bir qator ijobiy natijalar kuzatiladi. Birinchidan, hujjatlarning yo‘qolish ehtimoli keskin kamayadi, chunki barcha ma‘lumotlar markazlashtirilgan serverlarda yoki bulutli saqlash tizimlarida saqlanadi. Ikkinchidan, tekshiruv jarayoni soddalashadi: soliq organlari, auditorlar va ichki nazorat bo‘limlari hujjatlarni elektron tarzda tezkor ko‘rib chiqish imkoniga ega bo‘ladi. Uchinchi tomondan, inson omili bilan bog‘liq xatolar soni kamayadi, chunki tizim ko‘plab hisob-kitoblarni avtomatik bajaradi, ma‘lumotlarni takror kiritishni qisqartiradi va bir qator mantiqiy nazoratlarni (masalan, summalarni taqqoslash, sanalarni solishtirish) o‘zi bajaradi.

To'rtinchidan, ma'lumotlarni real vaqt rejimida boshqarish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va boshqaruv sifatini oshiradi. Bunday tizimlarni joriy etish bo'yicha dastlabki xarajatlar dasturiy ta'minot va xizmat xarakteriga qarab nomoddiy aktiv yoki davr xarajati sifatida tan olinadi, keyingi xizmat ko'rsatish va obuna xarajatlari esa davr xarajatlariga kiritilishi lozim.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, AKT xizmatlari zamonaviy korxona faoliyatining ajralmas qismiga aylangan va ularning buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish korxonaning moliyaviy holatini haqqoniy aks ettirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Dasturiy ta'minot, axborot xavfsizligi tizimlari, bulutli xizmatlar, AKT infratuzilmasi va elektron hujjat aylanishi bo'yicha buxgalteriya yondashuvlari bir-biridan farq qiladi. Shu boisdan korxonalar bu yo'nalishda yagona, aniq belgilangan ichki hisob siyosatini ishlab chiqishlari zarur. Bunda, ayniqsa, qaysi holatlarda dasturiy ta'minot nomoddiy aktiv sifatida, qaysi holatlarda esa oddiy davr xarajati sifatida tan olinishi bo'yicha mezonlarni aniq belgilash tavsiya etiladi.

Dasturiy ta'minotni nomoddiy aktiv sifatida tan olish bo'yicha asosiy mezonlar sifatida foydalanish muddati, kelgusida iqtisodiy foyda keltirish darajasi, korxona jarayonlariga integratsiya darajasi va huquqiy egalik huquqi (litsenziya turi)ni hisobga olish zarur. Agar dastur korxonaga bir necha yil davomida xizmat qilsa va undagi funksiyalar korxona ish faoliyatining markaziy bo'g'ini hisoblanadigan bo'lsa, bunday dasturlarni nomoddiy aktiv sifatida hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Aksincha, qisqa muddatli, faqat abonentlik asosida ishlaydigan va korxona tomonidan to'liq nazorat qilinmaydigan bulutli xizmatlar bo'yicha xarajatlar davr xarajatlari sifatida tan olinishi kerak. Ushbu yondashuv soliq va moliyaviy hisobotlar o'rtasida uyg'unlikni ta'minlaydi, investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ma'lumotlarning tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

AKT infratuzilmasi bo'yicha esa, serverlar, kompyuterlar va tarmoq uskunalarning amortizatsiya muddatlarini belgilashda korxonaning texnik siyosatini, bozordagi texnologik yangilanish sur'atini va uskunalardan foydalanish intensivligini inobatga olish zarur. Aks holda, buxgalteriya hisobida ko'rsatilgan qoldiq qiymat real holatdan keskin farq qilishi mumkin. Taklif tariqasida, korxonalarga har 2–3 yilda bir marotaba AKT infratuzilmasi bo'yicha inventarizatsiya o'tkazish, eskirgan yoki ishlatilmayotgan uskunalarini hisobdan chiqarish, amortizatsiya siyosatini zamonaviy talablarga moslab qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Yakunda aytish mumkinki, AKT xizmatlari bo'yicha buxgalteriya hisobini modernizatsiya qilish, milliy me'yoriy-huquqiy bazani xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirgan holda takomillashtirish, korxonalar uchun ichki metodikalarni ishlab chiqish va amalyotchi buxgalterlarni muntazam tayyorlash zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida muhim strategik vazifa hisoblanadi. Shu yo'nalishda amalga oshiriladigan ishlar korxonalarning moliyaviy shaffofligini oshirish, investorlar ishonchini kuchaytirish va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Боронов, Б. Ф. (2022). ЁҒ-МОЙ МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИ ҲИСОБИНИНГ НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 7 OCTOBER 2022*, 202284.
2. Shodiyevich, R. S., Shodiyevich, R. S., & o'g'li U. S. B. (2023). ACCOUNTING ISSUES IN THE DIGITAL ECONOMY. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 4(6), 80-84. Retrieved from <https://cajmtcs.centralasianstudies.org/index.php/CAJMTCS/article/view/475>
3. De Andreis, F. (2019). The Principles behind a Strategic Plan.
4. Ражабоев, Ш., и П. Хамидова. «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ». *Экономическое развитие и анализ*, т. 3, вып. 1, январь 2025 г., сс. 120-4, <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/65480>
5. Forrester, J.W. (1992). Policies, Decisions and Information Sources for Modeling.
6. Боронов, Б. (2022). МАҲСУЛОТ ТАННАРХИНИ ҲИСОБЛАШДА УМУМИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА УЛАРНИНГ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Economics and Innovative Technologies*, 10(6), 31-42.
7. Salet, W.; Faludi, A. (2000). Three Approaches to Strategic Planning.
8. Уразов К.Б., and Боронов Б.Ф.. "РЕСПУБЛИКА ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИДА ЁҒ-МОЙ МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ТУРЛАРИ" *Экономика и социум*, no. 6-2 (97), 2022, pp. 714-719.
9. Ljiljana Vasilevska (2009). Strategic planning as a regional development mechanism.
10. Shakhboz R. USING MODERN TECHNOLOGIES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF TEACHING COMPUTER SCIENCE BASED ON

DISTANCE EDUCATION //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – Т. 3. – №. 7.